



O‘ZBEK TILINING UNLILAR TIZIMIDA SATHLARARO TAJALLILANISH

Kenjayeva Zahro Suyunovna,

QarDU o‘qituvchisi

zahrokenjayeva607@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18699144>

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tili tovushlar tizimidagi unli fonemalarning fonetik sathdan tashqari boshqa lisoniy sathlar doirasida ham leksik birlik bo‘lib voqelanishi dalillangan.

Tayanch so‘zlar: fonema, tovush, tajalli, sath, fonetik sath, urg‘u, bo‘g‘in, morfema, qolip, antroposentrik tilshunoslik.

Abstract. The article argues that vowel phonemes in the Uzbek sound system exist as lexical units at other linguistic levels, in addition to the phonetic level.

Key words: phoneme, sound, accent, level, phonetic level, stress, syllable, morpheme, pattern, anthropocentric linguistics.

Аннотация. В статье утверждается, что гласные фонемы в узбекской звуковой системе существуют в качестве лексических единиц и на других языковых уровнях, помимо фонетического.

Ключевые слова: фонема, звук, акцент, уровень, фонетический уровень, ударение, слог, морфема, модель, антропоцентрическая лингвистика.

Kirish. Barcha tillarda bo‘lganidek, hozirgi o‘zbek tili ham necha asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zining zamonaviy tarkibini shakllantirib bo‘ldi. Ammo hozirgi zamonaviy leksik tarkib faqat o‘zbek tilining o‘zigagina xos bo‘lmasdan yoki umumturkiy so‘zlarnigina tashkil etmay, o‘zga fors-tojik, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham uning bag‘rida hamon yashab keladi. Unlilar tadqiqi va tasnifi bir sath doirasida voqelanishi yuqorida qayd etildi. Biroq mohiyat unlilik qiymatiga ega bo‘lishiga qaramasdan, bu jabha boshqa sathlar doirasiga o‘tish bilan ham xarakterlanadi. Demak, bu o‘rinda dialektika nuqtayi nazaridan har bir xususiylikda (voqelikda, hodisalarda) yuzlab umumiyliklarning zarralari (yuzaga chiqish shakllari) birlashadi va bir xususiylikni tashkil etadi

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tili tarixiy fonetikasini o‘rganish, asosan, rus va sho‘ro turkshunoslari tomonidan amalga oshirildi. Inchunin, V.V. Radlovning eski o‘zbek tili yodgorliklari fonetikasi bo‘yicha ishlari, K.Yudaxinning “Chig‘atoy tilining fonetik sostavi haqida materiallar” (1929), A.K.Borovkovning “Alisher Navoiy – eski o‘zbek tilining asoschisi” (1946), “Badoye ul-lug‘at” hamda “Tole’ Imoniy Hiraviyning Navoiy asarlari lug‘ati” (1961), A.M.Shcherbakning “Navoiy tili” (1941), “X–XIII asr Sharqiy Turkiston turkiy matnlari tilining grammatik ocherki” (1961), “Eski o‘zbek tili grammatikasi” (1962), “Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi” (1970) singari asarlari bu jabhaning rivoji uchun ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

O‘zbek tilshunoslarining o‘zbek tili tarixiy fonetikasi bilan qiziqishlari ancha kech – XX asrning 60-yillaridan keyin boshlandi. Shunga muvofiq professorlar F.Abdullayev,



G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, X.Doniyorov eski o'zbek tili unli va undoshlari sistemasi, ayrim fonetik hodisalar bo'yicha qator ilmiy ishlarni nashr ettirdilar. Bir guruh olimlarimiz Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida eski o'zbek tili unilari sistemasi ustida tadqiqot ishlari olib bordilar. Bu sohada, oldin qayd etilganidek, Q.Mahmudov E.A.Umarov, G'.Abdurahmonov, A.Rustamovlarning o'zbek tili fonetik tizimining yuzaga kelishi borasidagi ilmiy tadqiqotlari mazkur yo'nalishning taraqqiysi uchun juda muhim xizmatni amalga oshirgan izlanishlar tariqasida baholanadi.

O'zbek tili tarixiy fonetikasini o'rganishda XI-XV asrlar yozma yodgorliklarining mukammal transkripsiya asosidagi ilmiy nashrlarini amalga oshirgan E.I.Fozilov, S.Mutallibov, H.Ne'matov, Q.Karimov, K.Yunusov, M.Ziyoyeva, A.I.Chaykovskaya, N.Ahmatov, M.Turobova va boshqalarning xizmatlari juda katta.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada o'zbek tili fonetik sathining rivojlanishida o'zlashma qatlamga mansub fors-tojikcha va arabcha so'zlarning formal-semantik va etimologik xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, hind-yevropa tillar oilasining eroniy va somiy tillar guruhiga kiruvchi leksik birliklarning lingvistik qiymatlari oltoy tillar oilasining turkiy turkiy tillar guruhiga kiruvchi o'zbek tili so'zlari bilan qiyoslandi. Bu yondashuv ona tilimiz uchun substat maqomiga molik bo'lgan leksik birliklarning qiymatini belgilash imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qilishi ma'lum bo'ldi. Tipologik tahlil yordamida noqardosh tillarga molik bo'lgan so'zlarning formal hamda semantik mavqei taqqoslandi. Bu zamonaviy o'zbek tili leksikografiyasining ichki strukturasi universal va milliy jihatlarni aniqlashga xizmat qilishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, o'zlashma somatik nazariy asoslarini dalillash uchun lug'atlardan, ilmiy tadqiqot manbalaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Chunonchi, unililar "... yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham o'z navbatida tizimchalarga bo'linadi. *i* va *u* fonemalari "yuqori tor" belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega bo'lmagan fonemalardan ajraladi. Biroq *i* va *u* kichik paradigmasi a'zolari farqlovchi belgilari (*i* – lablanmaganlik va *u* – lablanganlik belgilari) asosida o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. *e* ~ *o* tizimchasi "o'rta keng" belgisiga ko'ra *i* ~ *u* tizimchasidan ham, *a* ~ *o* tizimchasidan ham farqlanishi" bilan birga tilshunoslikning bir necha sathlariga tarmoqlanish – tajallilanish xususiyatini namoyon qiladi. Bu esa ularning geterogenlik qiymatining ustun ekanligini ko'rsatadi. Unilarning har biriga alohida-alohida to'xtalib, ularning bir sathning emas, balki umumlisoniy jihatdan qavatlanish qiymatini ko'rib chiqamiz.

A unlisi. 1. Sinxronik talqinga ko'ra "a fonemasi til oldi, keng, lablashmagan"[1;90]. Bu – uning eng umumiy tasnifi bo'lib, har qanday variantlilikka bog'lanmagan fonetik qiymatidir. Keyingi tavsiflar ham shunga mos ravishda bir sath miqyosidagi umumiyliklarni o'z ichiga oladi: "yumshoq o'zakda yoki yumshoq undoshlar bilan: yumshoq a (ä): *sällä*, *kättä*, *käm*, *aka* (*äkä*), *mällä*;



qattiq o‘zakda yoki qattiq undoshlar bilan: qattiq a: *g‘ash, g‘alla, qari, qadri, qamal, qamar;*

2. *a* unlisining bo‘g‘in hosil qilishdagi mavqeyi boshqa unilarga nisbatan bir qadar ortiq. Masalan: *Suv bir do‘konning ostidan chiqib, bu hovlidan uch-to‘rt quloq chamasi ochiq havoda oqar va ko‘prik-tom ostig‘a ketar edi. Kumushbibi ariq bo‘yidan bir o‘rinni ko‘zladi-da, sakrab narigi yuziga o‘tdi va cho‘nqaydi. Uning ko‘zlari muloyimg‘ina suv ustiga og‘dilar. Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg‘ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig‘a yetkanda go‘yoki, uning ta‘zimi uchun sekingina bir charx urib qo‘yar, o‘z ustig‘a o‘lturg‘an sohiraning sihrig‘a musaxxar bo‘lgan kabi tag‘i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag‘ina ko‘prik ostig‘a kirib ketar edi[2:78].*

74 ta so‘zshakldan iborat bu mikromatnda *a* unlisi 43 marta qo‘llangan. Ya‘ni: *ostidan, hovlidan, chamasi, havoda, oqar, va, ostig‘a, ketar, ariq, ko‘zladi-da, sakrab, narigi, yuziga, va, cho‘nqaydi, ko‘zlari, muloyimg‘ina, ustiga, og‘dilar, musaffo, yovoshg‘ina, kelar, qarshisig‘a, yetkanda, ta‘zimi, sekingina, charx, qo‘yar, ustig‘a, o‘lturg‘an, sohiraning, sihrig‘a, musaxxar, bo‘lgan, kabi, tag‘i, kattaroq, doirada, aylangach, ohistag‘ina, ostig‘a, ketar.* Demak, *a* unlisining qo‘llanish chastotasi 58 foizni tashkil etadi. Bu borada faqat *i* unlisining qo‘llanish imkoniyati *a* ga qaraganda ustun (65 ta – 87 foiz). Buning sababi *a* va *o* unilalarining hali o‘zbek jonli tilida alohida fonema sifatida shakllanmaganligida deyish o‘rinli bo‘ladi[1:97]. “... *o* unlisining fonologik qiymati hozirgi o‘zbek tilida ham hali to‘liq shakllanib bo‘lmagan, shuning uchun ham *o ~ a* paralleli reaktiv mavjudlik sifatida tilimizda saqlanib qolgan. Bunda lisoniy an‘ana *a* lashishni taqozo etsa, yangilanish talabi *o* lovcilikni talab qiladi, shu sababdan ham bu unilarning teng qiymatlilik belgisi hamon o‘z kuchini saqlab turibdi”. Shunga muvofiq agar mikromatndagi *o* ishtirok etgan 18 ta so‘zni qo‘shib hisoblaganda, bu riyoziy ko‘rsatkich 61 taga yetib, yuqori (82 foiz) chastotani yuzaga keltiradi.

3. *a* lisoniy birligi fonetik koyni doirasidan chiqib, **morfologik** ko‘rsatkich sifatida bir qadar vazifalarni bajarish imkoniyatini namoyon qiladi. Masalan:

a) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi:

Kitobat boshladim, anjoma yetgay,
“Muhabbatnoma” Misru Shoma yetgay.

“Muhabbatnoma”

b) ravishdosh (zamon – payt ravishdoshi) qiymatini voqelantiradi;

-a, -y affiksi. Ravishdoshning bir turi undosh bilan bitgan fe‘llarga *-a*, unli bilan bitgan fe‘llarga *-y* affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Bu turdagi ravishdosh quyidagi ma‘no va vazifalarda qo‘llanadi:

1. Harakatning belgisini bildiradi. Bu vazifada u yakka so‘z holida (*kula, ushlay* kabi) kam qo‘llanadi. Yakka so‘z holida qo‘llanganda, subyektning shu forma bildirgan harakatni bajargan onning o‘zida (tezlik bilan) boshqa biror harakatni bajarishga o‘tishi ifodalanadi:



Jo 'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. (A. Q.)

Ravishdoshning *-a, -y* affiksi bilan yasaluvchi turi harakatning **belgisini** bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft so'z holida qo'llanadi: *Ular samolyotdan tushishlari bilanoq tizzalaridan sochma qumga bota-bota hansirab birov tomonga borardilar. (B. Q.)* *Muyassar shosha-pisha unga kechagi o'ylarini gapira boshlagan edi,... (O. Y.)*[4:96]

-(a)y, -(i)b shaklli ravishdoshning xilma-xil vazifasini bajara olish xususiyati bilan o'zgachalik kasb etadi. Bu shaklli ravishdosh, ko'pincha, *boshla-, chiq-, qol-, ko'r-, yubor-* kabi fe'l bilan birikish imkoniyatiga ega sanaladi.

4) kelasi zamon: Hozirgi-kelasi zamon aniqlik formasi *-a, -y* affiksi bilan yasalgan ravishdoshni shaxs-son bilan tuslash orqali hosil qilinadi: *yozaman, yozasan, yozadi; yozamiz, yozasiz, yozadi(lar)*. Bu forma quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanadi:

1. Hozirgi zamoni bildiradi. Bunda quyidagi holatlar bo'lishi mumkin: 1) harakatning bajarilishi biror vaqt bilan chegaralanmaydi, u predmetning qonuniy, doimiy belgisiga aylangan bo'ladi: *qush uchadi, kulgi umrni uzaytiradi va b. Inson yuragi – nozik rubob. Uni muhabbat bilan chertsang, ishq qo'shig'ini, vafo dostonini eshitasan. (H. G'.) O'zbek qizlari sevgisini aytmaydi. Bir umr pinhon tutadi. (Sayyor.) Qush uyasida ko'rganini qiladi. (Maqol.);*

2) shaxs yoki predmetning odatdagi, doimiy harakatini bildiradi: *Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko'rpa qaviydi,.. (O.) Mening ikki tanishim bor,.. bir-biriga ishonadi, ...birga ishlaydi, birga yuradi, birga turadi... (A. Q.);*

3) harakatning bajarilishi bevosita nutq vaziyatiga, hoziriga oid bo'lishi mumkin: *Yigit nihoyatda isib ketgan. Peshanasi, yuzlaridan tinmay ter quyiladi. (S.Ahm.) O'sha kuni bo'lib o'tgan shov-shuv hali ham qulog'im tagida shang'illaydi, hali ham miyamni gangityapti. (B. Q.) Allaqanday qing'ir-qiyshiq yo'llarda yurib, jinoyat qilib, jar yoqasida turasan, bola!! (Ya.)*

5. **Yuklama** (so'roq, kuchaytiruv) grammatik ma'nosini voqelantiradi:

-a(-ya) yuklamasi: 1) so'roq bildiradi: *Shahar juda ham o'zgarib ketibdi-da, a ? (As. M.) Butun boshliq bir mamlakatni-ya? (As. M.)*

2) his va hayajonni anglatadi: *Voy, biram chiroyli gul ekan-a! (Fad.)*

3) tasdiq, ishonch ifodalaydi: *Patirlarni kursillatib-kursillatib o'zim yeyman – nuqul moy-a. (O.);*

4) taajjub, ajablanishni bildiradi: *Men dalada ishlashim kerakmishmi?–Men-a. (O.) Bolaga o'xshaydi-ya. (O.) ...Odamlar qayoqlarga borib yurishadi-ya... (S. Ahm.).*



1. **So‘roq yuklamasi:** *-a* yuklamasi turli so‘z turkumidagi so‘zlarga qo‘shilib, so‘roq ma‘nosini anglatadi. Ba‘zan, so‘roq ma‘nosidan tashqari, taajjub, hayrat ma‘nosini ham ifodalashi mumkin.

Bu yuklama o‘zidan oldingi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya?* 3. *Nahotki, shu gaplarga ishongan bo‘lsangiz.*

6. So‘z yasovchi unsur sifatida tilimizdan o‘rin olgan:

-a. Bu affiks bilan yasalgan fe‘llar kamchilikni tashkil etadi. *-a* affiksi ot, sifat va taqlid so‘zlardan fe‘l yasaydi: *osh + a, qon + a, o‘yn + a (o‘yin + a), bo‘sh + a, qiyn + a (qiyin + a), shildir+a, jildir + a.*

7. Undov turkumi darajasida nutqda qo‘llanish barobarida his-hayajon, tuyg‘u ma‘nolarni ifodalaydi. Bu taqliddagi ko‘p ma‘nolarni anglatib, ularning qanday ma‘nodaligi matnda aniqlanadi va ular so‘roq, taajjub, ajablanish, hayratlanish, ishonchsizlik, ikkilanish, sevinch, mamnunlik, qayg‘u, xafalik, qo‘rqinch, achinish, bezovtalanish, e‘tiroz, qanoatlanganlik, norozilik, ogohlantirish, g‘azab, nafrat, jirkanish, mensimaslik, kamsitish kabi ma‘nolardan biri yoki bir nechtasini anglatib keladi. Misol: *Men ham boraman, a?* (so‘roq) *Shunday bo‘ldimi, a!* (ajablanish).

A!– Jamoliddin Mahdumning ko‘zlari chaqnab ketdi (M. Ismoilij).

8. So‘z gap.

Inson nutqiga oid his-tuyg‘uni, haydash, to‘xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so‘z-gap ko‘rinishi – undov so‘z-gap sanaladi. His-tuyg‘u undoviga *eh, voy, oh, barakalla, rahmat, ofarin* kabi so‘z, buyruq-xitob undovlariga *pisht, beh-beh, pisht-pisht, chuh* kabi xitob so‘zlar kiradi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi unilarning hech biri gomogen qiymatga emas, ularning barchasi bir necha sathlarining birligi sifatida tarmoqlanib, tilning muayyan sistema ekanligiga ishora qiladi. Ular lison ~ nutq dixatomiya-siga ko‘ra unililik doirasidan chiqib, morfologik, sintaktik, so‘z yasalishi hamda oraliqdagi so‘z turkumlari belgilarini mujassam qilgan holda voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фарҳанги забони тоҷики. Ҷ-2. – Москва: нашриёти “Советская энциклопедия”, 1969. – 874 с.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Учинчи жилд. Шукрона – Ҳ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. Н – Тартибли. – 988 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I том. – Б. 53.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
5. Аҳматов Н. “Шайбонийнома” асари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1991. – 135 б.